

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2023 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Болат Қалыбеков Қазақ терминологиясының кейбір өзекті мәселелері.....	6
Замира Абдужаббарова Экономия речи в когнитивных и национально-культурных особенностях речевой компетентности в английском и узбекском языках.....	27
Marhabo Umurzoqova Personaj lisoniy shaxsida yosh xususiyatlarining namoyon bo'lishi	36
Iqbol O'razova Mental leksikonda so'zlarning saqlanishi.....	44
Dilfuza Shonazarova Diskurs tahlilning o'ziga xos xususiyatlari	57
Sherzod Atamuradov O'zbek va turk tillarida pragmatik to'siqni yuzaga keltiruvchi lisoniy omillar	66
Mahliyoxon Tuxtasinova L. Budagovning "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" lug'ati uchun asos bo'lgan manbalar.....	88
Lobar Qambarova Tilshunoslikda afaziya tasnifi	112
Go'zal Mirzayeva O'zbek va turk tillaridagi singarmonizm hodisasining qiyosiy tahlili.....	125
Kamola Abdulloyeva Tasviriy ifodalarning muallif modalligini aks ettirishdagi ahamiyati.....	132
Xayriniso Mamirova So'z ma'nosini o'zlashtirishining gender va yosh xususiyatlari bilan bog'liqligi...	144
Nafisa Arolova Til ta'limida o'quvchilarning kognitiv malakasini oshirishga qaratilgan metodlar	157
Shirinoy Muhsinjonova Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida sut mahsulotlariga doir leksemalarning aks ettirilishi	171
Qudratillo Bakirov "Devonu lug'otit-turk"da qo'llangan vaqtni nomlovchi leksik birliklarning hozirgi turkiy tillar iste'mol qatlamidagi o'rni.....	181

Til ta'limida o'quvchilarning kognitiv malakasini oshirishga qaratilgan metodlar

Nafisa Arolova¹

Abstrakt

Bugun raqamli texnologiyalar taraqqiyoti davrida insonning aqliy resurslari asosiy boylik bo'lib maydonga chiqmoqda. Har bir insonning milliy tafakkurini takomillashtirish, rivojlantirish til ta'limi bilan bevosita bog'liq. Ta'lim – psixolingvistik jarayon. Uning samaradorligini oshirish uchun til o'qitish jarayonida o'rganuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, o'quvchining dastlab tushunish, so'ngra tushuntira olish, tafakkurini kengaytira oladigan psixolingvistik ta'lim metodlaridan foydalanish, zamonaviy usullarni amaliyotda qo'llash hamda pedagogik jarayonga yangicha yondashuvlarni olib kirish til ta'limi sohasining eng dolzarb masalalaridan biridir. Shu sababdan maqolada o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar yoritilgan. Ushbu metodlarga tayanilgan tajriba ishlari keltirilgan va olingan natijalar jadval ko'rinishida berilgan.

Kalit so'zlar: *Kognitiv malaka, psixolingvistik metodlar, innovatsion ta'lim shakli, assosiativ metod, "Mantiqiy bog'" metodi, "Mozaika" metodi.*

Kirish

Bugun til ta'limida o'quvchilarning kognitiv malakasini oshirish maqsadida zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanilmoqda. Ta'lim sohasida interfaol usullarning nazariy va metodik asoslarini yaratish va ularni ta'lim tizimi amaliyotida qo'llash ta'lim sohasining birlamchi masalalaridan biridir. Nutqiy faoliyat gapirish, eshitish, yozish va o'qish vositasida amalga oshadi. Ushbu vositalar kishilarning munosabat turlari sifatida verbal muloqot jarayonida yuzaga keladi. Har bir darsni o'ziga xos usul bilan o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta, ijobiy natijaga erishiladi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya

¹ Nafisa Arolova – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi.

E-pochta: nafisaarolova@6gmail.com

Iqtibos uchun: Arolova, N. "Til ta'limida o'quvchilarning kognitiv malakasini oshirishga qaratilgan metodlar". *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika*. 2023-2: 157-170.

berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ular qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu yo'lda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi.

Asosiy qism

Psixolingvistik tadqiqotlarga tayanib aytish mumkinki, endi dunyoga kelgan bola ham o'z ona tilisini boshqa tillardan ajrata olishi isbotlangan. Inson ongidagi til tizimi, avvalo, o'sha tilni eshitib qabul qilishi natijasida hosil bo'ladi. Ya'ni atrofidagilarning nutqini qabul qilishi natijasida unda eshitish qobiliyati rivojlanadi va mustaqil artikulyatsiya shakllana boshlaydi. Ushbu amaliy tayyorgarlik natijasida bolada nutqiy tovushlarni takrorlash va alohida predmet nomlarini ayta olish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Bu jarayon tez rivojlanadi, nutq tobora kengayib, bog'lanishli xarakterga ega bo'ladi. Shu tariqa maktab yoshiga yetgan bolaning og'zaki nutqi yetarlicha boy va to'liq bo'ladi. L.S.Vigotskiy fikricha, inson rivojlanishining eng muhim yo'li ong shakllanishi hisoblanadi. Ilk bolalikda ong markazida idrok, maktabgacha tarbiya yoshida xotira, maktab yoshida tafakkur bo'ladi. Qolgan barcha psixik funksiyalar ustuvor bo'lgan funksiyalar ta'siri ostida rivojlanadi. Bolaning psixik rivojlanishiga ta'lim o'z ta'sirini o'tkazadi. Ya'ni, ongga faqat nutq orqaligina kirish mumkin. Bolalikda nutq va takakkur bir-biriga bog'liq bo'ladi. Keyinchalik inson rivojlana borishi bilan tafakkur ma'lum ma'noda tildan ajrala boradi. Olim bola mavjud bo'lgan til muhitining fikrlash tizimiga ta'sir qilishini alohida ta'kidlaydi. Insonning psixik rivojlanishi uning umuminsoniy madaniy tajribani o'zlashtirishi bilan bog'liq holda ro'y beradi [Выготский 1956, 63].

Ammo so'zlovchi bola nutqning qanday amalga oshganiyu nutq apparati haqida anglamaydi. Atrofidagi muloqot jarayoni qanday kechishi til sohibining ona tilini qay holda o'zlashtirilishiga ta'sir qiladi. Maktab partasiga endi o'tirgan o'quvchi endi uydagi ota-onasi yoki ko'chadagi o'rtoqlari tomonidan qo'llangan so'z va gaplardan boshqa lisoniy muhitga tushadi. Bu jarayon barcha sinfdoshlarida bir xil bo'ladi deb ayta olmaymiz. Endi o'quvchilar o'zlari ko'nikkan qisqa nutqni emas, kattaroq hajmdagi darsni tinglashlari, tushunishlari kerak bo'ladi. Bu vaqtda bola uchun dekodlash, ya'ni tushunish jarayoni murakkabroq kechadi. Sababi

o'quvchida eshitish jarayonida diqqatni jamlash va fikrlash sekinlik bilan shakllanib boradi. O'quvchining bu jarayonga moslashishi uchun matnlarni soddadan murakkabga qarab tanlab olinishi maqsadga muvofiq. Diqqati sust, xayolchanligi, ba'zan emotsionalligi sabab ham o'quvchilar matnni to'liq eshitmasligi mumkin. Eshitib tushunish jarayonini ongli ravishda boshqarishga bola vaqt o'tgan sari moslashib boradi. Tinglab tushunish assotsiativ bog'lanish, diskursiv tahlil bilan ham bog'liq. Assotsiativ bog'lanish tildagi leksik birliklarning semantik aloqasi, birgalikda nutqiy tuzilmalar hosil qilishi bilan amaliy ahamiyatga ega.

Tinglash og'zaki nutq uchun ko'prikdir. Og'zaki nutq mahorati ham barcha o'quvchilarda bir xil emas. Bunda har kim o'zida mavjud lug'at boyligidan foydalanadi, qay darajada til o'zlashtirganligi lisoniy vositalarni qo'llayotganda ko'rinadi. Og'zaki nutqqa mavzudan chetga chiqmay fikrini to'g'ri yetkazish, gapirayotgan mavzusi bo'yicha kirish, asosiy fikrni aytish va xulosalash, aytadigan gapi eshituvchiga qay darajada ta'sir qilishini baholay olish, tinglovchining diqqatini ushlash kabi talablarni qo'yish zarur. Buning uchun ona tili darslarida maxsus mashg'ulotlardan foydalaniladi. Tinglash orqali tushunish o'qib tushunishga nisbatan sekinroq amalga oshadi. Tushunish axborotni qabul qilishdan iborat emas, balki o'zida bor tasavvurlar bilan solishtirish yoki farqlashdan iborat. Tushunish barchada birdek bosqichma-bosqich kechmaydi. Ba'zilar tushunish aralash, betartib holda amalga oshadi. Ba'zilar axborotni shunchaki tovushlarning mexanik qabuli sifatida qabul qiladi. O'quvchilarga audiomatn eshittirilgandan so'ng, tinglab tushunish ko'nikmalarini tekshirish mumkin bo'ladi.

Tinglab tushunish jarayoni eshitish, diqqat, tushunish, xotira, baholash, javob berish kabi bir necha bosqichdan iborat bo'lgan vaziyatlarni o'z ichiga oladi. Eshitib tushunishning quyidagicha tartibini keltirish mumkin. Birin-ketin keladigan nutq tovushlari belgilari bo'yicha yozib boriladi. Avval urg'uli bo'g'inlar idrok qilinadi, keyin so'zning shartli chegarasi belgilanadi va lug'atdan muvofiq so'z izlanadi. Yangi so'zni miya o'z kontekstidan topib olishi maqbul hodisadir.

O'rta ta'lim o'quvchilarining tinglab tushunishida pedagogning roli muhimdir. Tinglash uchun tanlab olingan mavzu bolaning yoshini hisobga olishi, istaklari doirasida va yanada muhimi matndan ko'zlangan maqsad aniq bo'lishi lozim. O'quvchida tinglash jarayoni bir necha bosqichlar (dastlabki tinglash, tinglash jarayoni, tinglashdan keyingi faoliyat)da amalga oshadi. Dastlabki tinglash

jarayonida o'quvchilar hali matnni tinglamasdan boshlang'ich bilimlariga tayanib, mavzuni haqida ma'lum darajada tushunishlari mumkin. Tinglash jarayonida esa mavzu yuzasidan o'quvchida ko'nikmalar shakllanadi. Tinglashdan keyingi faoliyat ikkinchi jarayonda olingan bilimlar ustida ish olib boradi, ya'ni nutqiy faoliyatning keyingi bosqichlari – gapirish va yozish uchun yo'l ochadi. Til o'qitish ta'limida tinglash jarayoni har xil vaziyatlarda va har xil vositalar bilan amalga oshiriladi. Audio mataeriallarini tinglashda ovozning balandligi, tembri, so'zlovchining jinsi, so'zlovchining yoshi ham tinglovchining xotirasida qay darajada ma'lumotlarning saqlanib qolishiga va tushunilishiga ta'sir qiladi. Audio matnning qisqa bo'lishi va tajriba davomida qayta-qayta o'qilishi maqsadga muvofiq. Qachonki, audiomatndagi so'zlarni o'quvchi o'z anglatgan ma'nosi bilan o'zlashtirganda matn sifatli tinglanadi va oson tushuniladi. Matnni tinglash jarayoni barcha o'quvchilarda bir xil bo'lishi mumkin, ammo tushunish darajasi onggidagi "ma'lumotlar bazasi" tufayli turli mazmunda bo'ladi. O'quvchi matnda qanchalik leksikonidan tashqarida bo'lgan so'zlarning uchratishi shunchalik uning tinglashi va tushunishiga xalaqit berishi mumkin. Shu sababdan o'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlari va milliy tafakkuriga mos bo'lgan mavzudagi matnlarni tanlashi kerak. Til ta'limida o'quvchining eshitib tushunish ko'nikmasi ham, o'qib tushunish ko'nikmasi ham birdek ahamiyatli.

Milliy o'quv dasturi asosidagi maktab darsliklarida berilgan ayrim topshiriqlar o'quvchilarning tinglab tushunish malakasini shakllantirishga qaratilgan. Sifatli ta'lim uchun muhim omil bo'lgan bunday topshiriqlarni nazariy va amaliy kabi turlarga bo'lish mumkin. Ular ta'sirida o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi ortadi, fikrini mustaqil bayon eta olish ko'nikmasi shakllanadi, ko'rgan narsasi bir umr yodida qoladi. Ayniqsa, o'quvchiga tanish bo'lgan, kundalik hayotda uchratishimiz mumkin bo'lgan holatlarni ta'lim jarayoniga olib kirish natijasida yaxshi natijaga erishish mumkin.

"MOZAIKA" METODI. "Mozaika" so'zining ma'nosi "bo'laklardan yig'ib butun hosil qilish"dir. Bu usuldan foydalanish uchun oldindan kartochkalarga so'zlar yoki gaplar yozilishi kerak. O'quvchi so'zlar ketma-ketligini topib, joyiga qo'yib gap yoki matn hosil qilishi lozim. Har bir qoida yoki fikr yozilgan kartochkalar konvertida saqlanishi lozim.

Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning diqqat bilan eshitish, eshitgan axborotini xotirasida saqlash, tinglab tushunish kabi ko'nikmalarini shakllantirib borish zarur. Xususan, dars

davomida audiomatnlarni tinglash, tinglab tushunish, og'zaki hikoya qilib berishga mo'ljallangan topshiriqlarni ko'rib chiqsak. Qo'limizda bir xil mavzu va mazmunan qisman farqlanadigan uchta tasviriyl matn turibdi. Hajmi qisqa. O'quvchilarga ulardan faqat bittasi (masalan ikkinchisi) orfoepik me'yorlarga amal qilgan holda o'qib beriladi. Matn tinglab bo'lingach, o'quvchilar guruhiga konvertlar tarqatiladi. Ular ichiga bir xil qilib leksik va sintaktik birliklar yozilgan tarqatmalar solingan bo'ladi. O'quvchilar uchta matn yuzasidan tayyorlangan tarqatmalar orasidan aynan o'zlari tinglagan matnni tiklashlari lozim. Biz o'qigan matn bilan tuzilgan matn bir xil bo'lsa, topshiriq to'liq bajarilgan, o'quvchilar audiomatnni tinglab tushungan hisoblanadi. Matndagi so'zlarni diqqat bilan tinglagan, eslab qolgan o'quvchi uchun bu topshiriq qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu topshiriq orqali o'quvchilarda eshitib tushunish ko'nikmasi shakllanadi, sifatli ta'lim samaradorligi yanada oshadi.


1. Quyosh zarrin nurlarini sochib, qorlarni asta-sekin eritib, ular orasidan boychechakka jon ato etdi. Boychechak bahorning darakchisi bo'lgani bois birinchi bo'lib ochiladi. Quyosh nurlari tushishi bilan boychechaklar yerda yiltirab ko'rinadi. Boychechak guli bahor faslida hammaga o'zgacha quvonch bag'ishlaydi.

2. Ko'kda quyosh charaqlab tursa, yerda boychechak ochilsa, atrof naqadar chiroyli bo'lib ketadi. Boychechak – bahor faslining darakchisi. U birinchi bo'lib ochilgani bois ko'pincha sovuq shamollarga qurbon bo'ladi. Ammo u bahorni boshlab kelgani uchun odamlar bu gulni ko'ziga surtib, esonlik-omonlik deya e'zozlaydilar. Boychechak ochilgan vaqt uning iforidan hammaning bag'ri-dili ochiladi.

3. Quyosh qishning qalin qorlarini eritib, boychechakka jon ato etdi. Boychechak bahor faslining darakchisi bo'lganligi uchun buvilarimiz "Yana bir bor bahor fasliga yetkazganiga shukr", deya duolar qilishadi. Boychechakni ko'rish bilan inson kayfiyati ko'tariladi, qalbida o'zgacha iliqlik paydo bo'ladi.

Keyingi "Mantiqiy bog'" metodida o'quvchilarga semalari bir-biriga yaqin bo'lmagan uchta so'z beriladi yoki ularning assotsiatsiyalariga kelgan uchta so'z so'raladi. O'quvchilar o'sha so'zlarni qatnashtirib, yaxlit bir gap tuzishlari kerak. Bu metod orqali o'quvchilar so'zlarni ham semantik, ham grammatik jihatdan bir-biriga bog'laydi. Bir-birining javobini tinglash orqali o'z gaplari bilan solishtirish paydo bo'ladi, diskursiv tahlilni amalga oshiradi. Dars jarayoni davomida o'quvchilarga ushbu metod bo'yicha mashg'ulot olib borildi. Dastlab **deraza, sport, daraxt** kabi so'zlar berilganda

o'quvchilar quyidagi gaplarni hosil qilishdi.



Tarqoq halqalarni bitta zinjirga terishga o'xshash ushbu mashg'ulot, albatta, o'quvchiga o'ziga ishonish hissini beradi. Keyingi so'zlarni o'quvchilarning o'zlari birin-ketin tanlashdi: **shahar, paxta, baliq.**

- Baliq olib kelish uchun shaharga otlangan mashina paxtazorlardan o'tib borardi.
- Bizning shahrimizda baliqchilik, donchilik, konchilik, paxtachilik kabi sohalar rivojlangan.
- Shaharning markazida joylashgan "Paxtakor" stadioni yonida baliq sotilayotgan ekan.
- Andijon shahridan boshqa shaharlarga paxta va baliq eksport qilinadi.

Xullas, bu kabi metodlarni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, o'rtoqlari fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek, o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatishdan iborat.

Quyidagi tajriba o'quvchilarning eshitib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Tajriba sinoviga 6-A sinfining 20 nafar o'quvchilari qatnashishdi. Ular 10 nafardan iborat ikki guruhga ajratildi. Tajriba uchun tanlab olingan matn audio ko'rinishida taqdim etildi va uch marta o'qib eshittirildi. 10 nafar

o'quvchiga tarqatma berildi. Tarqatma qog'ozlarda o'quvchilar audio orqali eshitgan so'zlari notanish so'zlarga aralashgan holda berilgan edi. Ular xotirasida qolgan so'zlarning ostiga chizishlari lozim. Qolgan 10 nafar o'quvchiga esa bo'sh qog'ozlar beriladi. Ular esa xotirasida qolgan so'zlarni hech qanday stimul so'zlarsiz eshitib esda qolganlari bo'yicha yozishlari kerak. Bu jarayon matn uch marta o'qilganda uch marta o'tkaziladi.

Iqlim o'zgarishining oqibatlarini [6-sinf. Ona tili darsligi 2022, 35]

Global iqlim o'zgarishining oqibatlarini ko'psonli ixtiloflar va ommaviy ko'chishlarga ham sabab bo'ladi. Yaqinda ilm-fan bu nazariyaning haqiqatga mos kelishini tasdiqladi.

So'nggi yillarda olimlar iqlim o'zgarishi va migratsiya o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratdi. Buning uchun ular bir qancha tadqiqotlarni umumlashtirib, yagona manzarani hosil qilishga uringan. Dastlab 2006-2015-yillar davomida 157 davlatda qochoqlar boshpana so'rab bergan arizalar sonini o'rganib chiqdi. So'ng qochoqlarning asl vatanida ro'y bergan iqlim o'zgarishining dinamik jadvali tuzildi.

Qurolli ziddiyatlarning soni va ko'lami esa Shvetsiyada joylashgan Upsala universiteti 1946-yildan beri yuritib keladigan qurolli inqirozlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasiga tayanib o'rganildi. Kuchli qurg'oqchiliklar mavjud qurolli ziddiyatlarni yanada kuchaytirgani, qurbonlar sonining keskin ortishiga sabab bo'lgani aniqlandi.

Ayrim ekologlar global isishga qarshi yangi texnologiyalar yoki milliardlab daraxt ko'chati o'tqazish uchun kurashish shart emasligini ta'kidlaydi. Atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini keskin qisqartirish, oziq-ovqat yetishtirish uchun tabiiy muhiti buzilgan yerlarni qayta tiklash yoki go'sht iste'mol qilishni kamaytirish global isishni 1,5 gradusdan pastda ushlab turish uchun yetarli bo'ladi.

Ekolog, atmosfera, olim, kutib oldi, gradus, Shvetsiya, kichkina, qurg'oqchiliklar, texnologiyalar, go'sht, issiqxona, yo'qotdi, ixtilof, kurashish, milliard, dinamik, savol, jadval, global, tuproq, suv, universitet, jiddiy, kuchli, mustahkam, bo'ron, o'rganmoq, aniqlanmoq, go'sht, kuchaytirmoq, go'sht kabi so'zlar stimul tarzida beriladi.

O'quvchilar audiomatnni tinglagandan so'ng qay darajada eslab qolishi quyidagi tajribada ko'rsatilgan. Tajriba uch qismdan iborat. Retsipiyentlar matnni uch marta tinglashadi. Har bir

tinglaganidan so'ng eslab qolgan so'zlarini yozadi. 1-jadvalda tajriba ishtirokchilarining nechta so'zni yozib berganlari keltirilgan. 2-jadvalda esa eshitgan so'zlarini tarqatmada keltirilgan birliklar orasidan aniqlanganlari ko'rsatilgan.

1-jadval.

O'quvchilarning soni	1-eshitishdan so'ng	2-eshitishdan so'ng	3-eshitishdan so'ng
1	15	18	18
2	16	28	29
3	14	10	18
4	15	17	21
5	14	14	19
6	18	19	23
7	17	16	19
8	19	20	20
9	20	18	23
10	14	17	19

2-jadval.

O'quvchilarning soni	1-eshitishdan so'ng	2-eshitishdan so'ng	3-eshitishdan so'ng
1	20	25	27
2	19	26	30
3	23	18	25
4	25	27	29
5	21	24	29
6	18	20	23
7	19	23	29
8	19	21	25
9	20	28	30
10	22	27	29

3-jadval.

O'quvchilarning soni	1-eshitishdan so'ng o'xshash so'zlar	2-eshitishdan so'ng o'xshash so'zlar	3-eshitishdan so'ng o'xshash so'zlar
1	Iqlim	ommaviy ko'chishlar	Gradus
2	global	barobar	daraxt ko'chatlari o'tkazish
3	o'zgarish	iqlim o'zgarishlari	go'sht iste'mol qilishni kamaytirish
4	Shvetsiya	ommaviy	issiqxona
5	migratsiya	ziddiyat	migratsiya darajasi
6	olimlar	2006-2015	ekologlar

7	2006	daraxtlar ekish	ilm-fan
8	2015	go'sht	dinamik
9	atmosfera	kerakli emas	qochoqlar
10	ekologik	davlat	boshpana

3-jadvalga e'tibor bersak, birinchi eshitishda o'quvchilar ko'proq "kalit" so'zlarni eslab qolishgan. Ya'ni, joy nomlari, sanalar, ismlar va ularning assotsiatsiyalariga ta'sir qilgan so'zlarni yozib berishgan. O'quvchilar ayni bir matnni ikkinchi marta eshitganlaridan so'ng, ularda eslab qolingani so'zlar ko'paygan va so'z birikmalarini ham yodida saqlab qolgan. Dastlabki eshitishda eslab qolingani so'z birikib kelgan so'z bilan keyingi bosqichda eslab qolingani. Hali retsiyent to'liq gaplarni eslab qolmagan. Uchinchi marta eshitgan qatnashuvchilar endi matnni to'la anglaganliklari sezilib turibdi. Matn retsiyentlarga uch marta o'qib eshittirilgandan so'ng qayd etilgan lisoniy vositalarning "o'sib" borishini ko'rish mumkin. Eshitib qabul qilishda akustik, fonetik, fonologik darajalaridan, o'qib qabul qilish belgi, harf, so'z darajalaridan iborat.

Keyingi metod o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Tajriba davomida olingan har bir mashg'ulotlar tekshirilib, kerakli ko'rsatkichlar orqali baholanib, tahlil qilindi. Tajriba uchun "Manqurtlik tarixi" matni tanlab olindi. O'quvchilarga tarqatma qilib matn tarqatildi. Matnda ayrim o'rinlar bo'sh qoldirilgan. Tajriba ishtirokchilari o'qib, mazmunga mos so'zlarni yozishlari lozim.

Chingiz Aytmatov hikoya qiladi:

Qadim zamonlarda, qirg'izlar bilan qalmiqlar orasida _____ qonli urushlar ketayotgan davrlarda raqiblar mol-holni talon-taroj qilishdan tashqari, odamlarni _____ olib ketardilar. So'ng asirlar qul sifatida _____. Asir xojasi qaramog'ida podachilik qilib yursa-da, lekin ertami-kechmi baribir qochib ketishi mumkin edi. Dunyoda yaxshi odamlar ko'p - asir qulay fursat topib, biror kishidan qarindosh-urug'lariga o'zi haqida _____ yuborishi hech gap emas. Jismonan voyaga yetgan _____ paytida asir olingan odam besh yil, ko'pi bilan o'n yil tutqunlikka bardosh beradi. Keyin har qanday inson bolasi kabi uning ko'nglida asta-sekin _____ uyg'onadi, qo'llari o'z-o'zidan qurol-yarog' izlab qoladi, xayolida qo'zg'olon pishib yetiladi. Bo'lajak qo'zg'olonchini oldindan tushovlab qo'yishning birdan-bir yoki birlamchi vositasi - uni manqurtga aylantirib saqlash hisoblanardi. Buning uchun, eng avval, asirning sochlari ustarada qirqib olinardi. So'ng asirning boshiga yangi so'yilgan tuya yoki mol

terisidan qiyqim kiydilar. Mol terisining qiyqimini qirg'izlar "shiri" deyishardi. Terining chakkaga tushib turgan qismi gir aylantirilib, xom teridan to'qilgan chilvir bilan bog'lanadi. Asir ikki tomonlama azob iskanjasiga tushib qoladi. Dastlab, asta-sekin quriy boshlagan teri bujmayib, bosh chanog'ini _____; so'ngra yangi o'sib chiqqan soch tolalari terini teshib o'tishga ojizlik qilib, yo'nalishini o'zgartiradi va minglab ignalar bosh terisiga sanchiladi: shu tarzda vaqt o'tishi bilan asab tizimi ishdan chiqadi va xotira _____. Boshiga shiri kiydirilgan asirning qo'l-oyoqlari bog'lanib, suvsiz-ovqatsiz holda _____ quyosh ostiga tashlab qo'yiladi. Bir-ikki haftadan so'ng asir o'lib qolardi, yo manqurtga aylanardi. Agar o'lsa, azoblardan qutulib ketardi; tirik qolsa, ish quroliga aylanardi: o'z ismini ham, nasl-nasabini ham, o'tgan kunlarini ham eslay olmasdi, faqat xo'jayinning xohish-irodasiga _____ kerakligini bilardi, xolos.

Tajriba-sinovida qatnashgan o'quvchilarning javoblari
1-jadval

1	Tinmay	Asir	Qolishadi	Ma'lumot	O d a m bilan
2	Qattiq	Asirga	Foydalanishardi	Ma'lumot	Yetuk
3	Shafqatsiz	Asirga	Ishlatiladi	Ma'lumot	Navqiron
4	Jiddiy	A s i r qilib	Ko'rindilar	Xabar	Kishi
5	Tinimsiz	Qullikka	Ishlab	Xabar	Yosh
6	To'xtovsiz	A s i r qilib	Sotib yuborilardi	Xabar	Navqiron
7	Tinmay	Qullik Ka	Ishlatiladi	Xat	Navqiron
8	Shafqatsiz	Asir	Ishlatildi	Xat	Balog'at
9	Tinimsiz	Qul sifatida	Qolishadi	Ma'lumot	Yosh
10	Daxshatli	A s i r qilib	Foydalanishardi	Ma'lumot	Yetuklik
11	Bo'layotgan	Qullik Ka	Ishlatiladi	Ma'lumot	Navqiron
12	Tinmay	A s i r qilib	Ko'rindilar	Xabar	O'smirlik
13	Jiddiy	Qul sifatida	S o t i b yuborilardi	Xabar	Yosh
14	Yuz berayotgan	A s i r qilib	S o t i b yuborilardi	Xabar	Navqiron
15	Beshafqat	A s i r qilib	Ishlatiladi	Xat	Navqiron

2-jadval

1	Vahshiylik	Qisadi	Yo'qoladi	Sahroda	Ko'ra
2	Umid	Siqib	Yo'qoladi	Cho'lga	Ishonib
3	Yovuzlik	Ezadi	O'c h i b ketadi	Sahroga	Ko'ra
4	Yovuzlik	Siqadi	Pasayadi	Qiynab	Ko'nish
5	Yovuzlik	Ezib qo'yadi	Yo'qoladi	Cho'lga	Ishonib
6	Yomonlik	Siqadi	Sustlashadi	jazirama	Xizmat Qilishi
7	Yolg'izlik	Siqadi	Yo'qoladi	Issiq	Yashashi
8	Nafarat	Siqadi	Yo'qoladi	Sahroda	Bo'ysu Nishi
9	Vahshiy Lik	Ezadi	Yo'qoladi	Sahroda	Ko'ra
10	Umid	Siqib qo'yadi	Yo'qoladi	Cho'lga	R o z i bo'lib
11	Yovuzlik	Ezadi	Yo'qoladi	jazirama	Qarab
12	Norozilik	Siqadi	Pasayadi	C h i d a b bo'lmas	Bo'ysu Nishi
13	Yovuzlik	Ezib qo'yadi	Unutiladi	Anomal	B o s h egib
14	Yomonlik	Siqadi	Yo'qoladi	Qiynab	Bo'ysu Nishi
15	Yolg'izlik	Siqave radi	Yo'qoladi	Yondiradigan	Bo'ysu Nishi

Tajribadan so'ng xulosa shu bo'ldiki, o'quvchilar hech qiyinchiliksiz so'z va so'z birliklarini topishdi. Jadvalda ajratib ko'rsatilgan so'zlar matnda keltirilgan so'zlar bilan bir xil. O'quvchilar tomonidan keltirilgan boshqa variantlar ham matn mazmunidan uzoqlashib ketmaydi. Masalan, birinchi ustundagi **tinimsiz** so'ziga teng qiymatdagi (to'xtovsiz, tinmay) so'zlar keltirilgan. Xuddi shunday holat beshinchi ustunda ham keltirilgan. **Navqiron** so'zini balog'at, yetuklik, yosh kabi so'zlar bilan almashtirsak, matn mazmunida sezilarli o'zgarish bo'lmaydi. Tajriba ishtirokchisi nutqida qaysi biridan ko'proq foydalansa, bu uchun to'g'ri javob hisoblanadi. Chunki uning lisoniy qobiliyati **navqiron** so'zini berishga qodir emas. Kesim gapning markazi bo'lgani bois, o'quvchilar kesim topish so'ralgan gaplarda markaziy bo'lakni deyarli to'g'ri topishgan. 2-jadval ikkinchi va uchinchi ustunlarda javoblari keltirilgan. O'quvchilarning xatoga yo'l qo'yishlarining sababi nafaqat ularning bilim darajasiga, balki o'sha damdagi psixik holatlariga ham aloqadorligini unutmaslik lozim.

Shaxsda lingvistik kompetensiya shakllanishida poydevor bu nutq faoliyatidir. Nutqiy kompetensiya nutq turlaridan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bular tinglab tushunish, o'qib tushunish,

og'zaki va yozma nutq hosil qilish, og'zaki va yozma kodlarni o'zlashtirish. Nutq yaratish uchun turtki doim ma'lum kommunikativ vazifalarni hal qilish uchun odamning og'zaki muloqotga kirishishi zarurati hisoblanadi. Til o'zlashtirishda birlamchi til ko'nikmasi og'zaki nutqdir. Og'zaki nutqni o'zlashtirish tabiiy kechadi. Nutq mexanizmlarining rivojlanishi bilan bola tomonidan chiqarilgan tovushlar tobora murakkablashadi.

O'quvchilarning og'zaki nutqi ustida ishlash lug'at boyligini kengaytirishdan boshlanadi. Sababi lug'at boyligi yetarlicha boy bo'lgan o'quvchi o'z fikrini aniq ayta oladi. Til ta'limi jarayonida mavzu yuzasidan ochiq muloqotlar tashkil etilishi og'zaki nutqning rivojlanishi ham ijobiy ta'sir etadi. Umuman, til o'zlashtirish jarayonida o'zaro aloqa muhim rol o'ynaydi.

Og'zaki va yozma nutq tafakkur jarayonini boyituvchi vosita. Shu sababdan dars davomida o'quvchilarni to'g'ri jumla tuzishga, ravon mulohaza qilishga, fikr yuritish va yozishga o'rgatib borish zarur. Ayni damda uzoq yillardan buyon saqlanib kelgan bayoniylikdan chekinib, ijodiylik orqali mustaqil fikrlashga o'quvchilarni yo'naltirishga ham e'tibor berish lozim.

Yozuv har bir xalqning ma'naviy boyligi, yuksak madaniyatga erishganligining o'ziga xos ko'rinishi sanaladi. Yozma nutqda tinish belgilarining to'g'ri qo'llanishi ham savodxonlikning muhim ko'rinishlaridan hisoblanadi. Tinish belgilari bilan bog'liq xatolarni bartaraf etishda vizual holda matnlar bilan ishlash o'z samarasini beradi.

Xulosa

O'rta ta'lim o'quvchilarining eshitib tushunishida pedagogning roli muhimdir. Tinglash uchun tanlab olingan mavzu bolaning yoshini hisobga olishi, istaklari doirasida va yanada muhimi matndan ko'zlangan maqsad aniq bo'lishi lozim. O'quvchida tinglash jarayoni bir necha bosqichlar (dastlabki tinglash, tinglash jarayoni, tinglashdan keyingi faoliyat)da amalga oshadi. Dastlabki tinglash jarayonida o'quvchilar hali matnni tinglamasdan boshlang'ich bilimlariga tayanib, mavzuni haqida ma'lum darajada tushunishlari mumkin. Tinglash jarayonida esa mavzu yuzasidan o'quvchida ko'nikmalar shakllanadi. Tinglashdan keyingi faoliyat ikkinchi jarayonda olingan bilimlar ustida ish olib boradi, ya'ni nutqiy faoliyatning keyingi bosqichlari – gapirish va yozish uchun yo'l ochadi. Til o'qitish ta'limida tinglash jarayoni har xil vaziyatlarda va har xil vositalar bilan amalga oshiriladi. Audiomateriallarini tinglashda ovozning balandligi, tembri, so'zlovchining jinsi, so'zlovchining

yoshi ham tinglovchining xotirasida qay darajada ma'lumotlarning saqlanib qolishiga va tushunilishiga ta'sir qiladi.

Ona tilini o'zlashtirish bolalarning kognitiv kamoloti bilan chambarchas bog'liq. Bolalarning nutqiy tug'ma genetik moyilligi hayoti davomida ular bilan qolad. Bolalar o'sib ulg'aygan sayin ularning til egallash qobiliyatlari ham o'sadi. O'quvchini mustaqil fikrlashga va ushbu fikrlarini mustaqil bayon eta olishga o'rgatmas ekanmiz, ta'lim jarayonida ijobiy natijaga erishish muarakkab masalaligicha qoladi.

Adabiyotlar

- Богин, Г.И. 1980. *Современная лингводидактика*. Калининский гос.унив.
- Брабин, Г. 1982. *Родной язык и мозг*. Курьер ЮНЕСКО.
- Ellis, A.W., Young, A.W. *Human cognitive neuropsychology*. Hove UK: Lawrence Erlbaum Associates Ltd.
- Лурья, А.Р. 2002. *Письмо и речь: Нейролингвистические исследования: Учеб. Пособие для студ. Психол. фак. высш. учеб. заведений*. М.: Издательский центр «Академия».
- Леонтьев А.А. 1999. *Основы психолингвистики: Учебник для студ. Высш. Учеб. Заведений. 4-е изд., испр.* М.: Смысл; Издательский центр «Академия».
- https://en.wikipedia.org/wiki/Spectral_density
- <https://en.wikipedia.org/wiki/Hearing>

Methods aimed at improving the cognitive skills of students in language education

Nafisa Arolova¹

Abstract

Today, in the era of development of digital technologies, human mental resources are emerging as the main asset. Improving and developing the national thinking of every person is directly related to language education. Education is a psycholinguistic process. In order to increase its efficiency, it is necessary to take into account the individual characteristics

¹ Nafisa Arolova – intern teacher at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: nafisaarolova@6gmail.com

For reference: Arolova, N. "Methods aimed at improving the cognitive skills of students in language education". *Uzbekistan: language and culture. Linguistics*. 2023-2: 157-170.

of learners in the process of language teaching, to use modern educational methods that can expand the student's first understanding, then to explain, to think, to apply new methods in practice, and to introduce new approaches to the pedagogical process. Import is one of the most urgent issues in the field of language education. For this reason, the article describes the methods aimed at developing student's speaking skills.

Keywords: *Cognitive skills, psycholinguistic methods, innovative form of education, associative method, single field method, mosaic method.*

References

- Богин, Г.И. 1980. *Современная лингводидактика*. Калининский гос.унив.
- Брабин, Г. 1982. *Родной язык и мозг*. Курьер ЮНЕСКО.
- Ellis, A.W., Young, A.W. *Human cognitive neuropsychology*. Hove UK: Lawrence Erlbaum Associates Ltd.
- Лурья, А.Р. 2002. *Письмо и речь: Нейролингвистические исследования: Учеб. Пособие для студ. Психол. фак. высш. учеб. заведений*. М.: Издательский центр «Академия».
- Леонтьев А.А. 1999. *Основы психолингвистики: Учебник для студ. Высш. Учеб. Заведений. 4-е изд., испр.* М.: Смысл; Издательский центр «Академия».
- https://en.wikipedia.org/wiki/Spectral_density
- <https://en.wikipedia.org/wiki/Hearing>